3. **Communication – Muloqot.** Muloqot – o'z fikrlarini aniq, izchil va tushunarli ifodalash, ilmiy bahs-munozaralarda faol ishtirok etish hamda axborotni yozma va og'zaki shaklda samarali uzatish qobiliyatidir. Biologiyada bu laboratoriya natijalarini taqdim etish, ilmiy hisobotlar yozish, tajriba tafsilotlarini hamkorlarga yetkazish kabi jihatlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot ko'nikmasi zamonaviy jamiyatda ijtimoiylashuvning, kasbiy yuksalishning va ta'lim samaradorligining muhim tarkibiy qismidir.
4. **Collaboration – Hamkorlik.** Hamkorlik – guruhda ishlash, birgalikda fikr almashish, qarorlar qabul qilishda boshqalar bilan murosaga kelish va ijtimoiy rollarni bajarish qobiliyatidir. Biologik dars jarayonida bu o'quvchilarning laboratoriya ishlarini jamoaviy bajarishi, tajriba loyihalarini birgalikda ishlab chiqishi yoki muammoli masalalarni kollektivda muhokama qilishi orqali namoyon bo'ladi. Hamkorlik nafaqat akademik natijalarga, balki o'quvchining ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Trilling va Fadel (2009) o'z tadqiqotlarida 4K kompetensiyalarini XXI asrda raqobatbardosh shaxsni shakllantirishda asosiy ko'nikmalar majmuasi deb e'tirof etgan. Ularning fikriga ko'ra, ushbu kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat o'quvchining ta'limdagi muvaffaqiyatini oshiradi, balki uni jamiyatda faol ishtirok eta



oladigan fuqaroga aylantiradi ^[1]. Shuningdek, Griffin, McGaw va Care (2012) tomonidan olib borilgan izlanishlar natijalariga ko'ra, 4K kompetensiyalari maktab ta'limining sifat ko'rsatkichlari sifatida qaralmoqda. Ular o'quvchilarning akademik natijalariga, ijtimoiy moslashuviga, qaror qabul qilish qobiliyatiga va kasbiy muvafaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi ^[2].

Bugungi kunda biologik ta'lim jarayonida 4K kompetensiyalarining tadbiri intensiv tarzda oshib bormoqda. Biologiya – tabiatni ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan kompleks va fundamental fan sifatida ta'lim oluvchilarda 4K kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Masalan:

- tanqidiy fikrlash orqali ta'lim oluvchilar genetika, seleksiya, ekologiya, evolyutsiya doirasidagi murakkab tushunchalarni tahlil qiladi;
- ijodkorlik orqali yangi laboratoriya va amaliy ishlarni loyihalash yoki hayotiy muammolarga ijobiy yechimlar taklif etadi; muloqot orqali ilmiy munozaralarda qatnashadi, tajriba natijalarini taqdim etadi;
- hamkorlik orqali esa guruhli tajriba ishlari yoki ilmiy loyihalarda faol ishtirok etadi.

Shu asosda aytish mumkinki, 4K kompetensiyalari – bu faqatgina zamonaviy talab emas, balki o'qitish jarayonini mazmunan va metod jihatdan boyitadigan fundamental pedagogik poydevordir. XXI asr ta'limida o'quvchining faol o'rganishi va mustaqil fikrlashi asosiy o'rin tutmoqda. Shu maqsadda, 5E modeli – bu ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich va interaktiv tarzda tashkil etishga mo'ljallangan samarali yondashuvdir. Ushbu model 1980-yillarda Bybee va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi. Konstruktivizm nazariyasi o'quvchini bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki o'z tajribasi asosida faol yaratuvchi sifatida ko'radi ^[3].

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida 5E modelining o'rni beqiyos bo'lib, quyidagi bosqichlar asosida tadbir etilmoqda:

1. **Engage (Jalb etish).** Ushbu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi, mavzu bo'yicha qiziqishni uyg'otadi va ularning avvalgi bilim hamda tajribalarini faollashtiradi. Masalan, biologiya darsida o'simliklarda ro'y beradigan fotosintez jarayoni mavzusini o'rgatishdan oldin, o'quvchilarga atrof-muhitdagi o'simliklarning o'sishini kuzatishni taklif qilish mumkin. Bu o'quvchilarni mavzuga tayyorlaydi va ularning ilgari bilganlarini eslatib o'tadi.
2. **Explore (Tadqiq qilish).** Bu bosqichda o'quvchilar mustaqil yoki guruhda amaliy faoliyat olib boradilar, tajribalar o'tkazadilar, kuzatuvlar qiladilar va yangi ma'lumotlarni o'zlari kashf etadilar. Biologiya fanida bu o'quvchilarga laboratoriyada o'simlik hujayralarining mikroskop ostidagi tuzilishini o'rganish imkonini beradi. Shunday qilib, o'quvchi mavzuni o'zining faol tajribasi orqali chuqurroq anglaydi.
3. **Explain (Tushuntirish).** Ushbu bosqichda o'qituvchi yangi tushunchalar va nazariy bilimlarni aniq tushuntiradi, o'quvchilar esa o'zlari kashf etgan bilimlarni so'z bilan ifodalashga harakat qiladi. Biologiyada bu jarayon fotosintez jarayonining kimyoviy va biologik asoslarini tushuntirishda muhimdir. O'quvchilar o'zlari tajriba natijalarini baham ko'radi va o'z tushunchalarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi.
4. **Elaborate (Takomillashtirish).** Bu bosqichda o'quvchilar yangi bilimlarni kengaytirib, boshqa fan sohalari yoki real hayot muammolari bilan bog'lashadi. Misol uchun, fotosintez jarayonining ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bilan qanday aloqasi borligini tahlil qilish mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilar mavzuga oid murakkab masalalarni yechishga harakat qiladi, o'z fikrlarini kengaytiradi va o'rganganlarini amaliyotda qo'llaydi.
5. **Evaluate (Baholash).** Baholash – bu o'quvchilarning o'rganilgan bilim va ko'nikmalarini mustaqil tekshirish imkonini beruvchi bosqichdir. Bu faqat test savollari yoki yozma ishlar orqali emas, balki ta'lim jarayonidagi faoliyatlar, loyihalar va tahlillar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Biologiya fanida baholash o'quvchilarning ilmiy izlanishlari va laboratoriya ishlaridagi faoliyatini baholash bilan birga, ularning tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatini ham o'lchaydi ^[6].

5E modeli tabiiy fanlarda, xususan biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish va ularning bilimlarini chuqurlashtirishda ayniqsa samarali hisoblanadi. Biologiya murakkab ilmiy tushunchalar va jarayonlarga boy bo'lib, ularni o'quvchiga qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazish qiyin bo'lishi mumkin. 5E modeli esa bu muammoni interaktiv, tajribaga asoslangan yondashuv orqali hal etadi. Bu model o'quvchilarni nazariyani amaliyot bilan bog'lashga, o'z bilimlarini mustaqil kashf etishga undaydi. Masalan, Dalgarno va Lee (2010) tadqiqotlarida raqamli ta'lim muhitida 5E modelini qo'llash o'quvchilarning biologiya fanidan bilim darajasini sezilarli darajada oshirganligi aniqlangan. Ular modelning har bir bosqichi o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishga va mavzuni yaxshiroq tushinishga xizmat qilishini ta'kidlashdi ^[4].

Bizningcha, 5E modeli zamonaviy ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun mustahkam metodik asosdir. Bu model ta'limni interaktiv va konstruktiv tarzda olib borishga imkon berib, o'quvchilarni faol o'rganuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Biologiya kabi tabiiy fanlarda 5E modeli o'quvchilarning ilmiy fikrlashini rivojlantirish, tajriba ko'nikmalarini oshirish va mustaqil o'rganishni rag'batlantirish uchun ayniqsa qulaydir ^[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, kompleks muammolarni tahlil qila oluvchi, fanlararo integratsiyani anglaydigan va ijodiy yondasha oladigan shaxs sifatida shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu ayniqsa biologik ta'limda o'z aksini topadi, chunki biologiya fani o'z tabiatiga ko'ra murakkab, dinamik va boshqa tabiiy fanlar bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan, pedagogika sohasida ilg'or nazariy yondashuvlar asosida milliy ta'lim ehtiyojlariga mos, amaliyotga yaqin va o'quvchi faolligini oshiruvchi modellar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday innovatsion yondashuvlardan biri – bu 5I modeli bo'lib, u dotsent U. E. Raxmatov tomonidan pedagogik nazariya va amaliyot birligini hisobga olgan holda taklif etilgan original ilmiy-metodik modeldir ^[8]. 5I modeli biologik ta'limni interaktiv, analitik va integrativ ruhda tashkil etishga xizmat qiluvchi bosqichli yondashuv bo'lib, har bir komponent o'zining metodologik asoslari va amaliy samaradorligi bilan ajralib turadi. Ushbu model nafaqat biologiyaning o'ziga xos didaktik xususiyatlarini hisobga oladi, balki XXI asr kompetensiyalari (4K: tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodkorlik, muloqot)ni shakllantirishda ham muhim vositadir.

Modelning birinchi bosqichi – Integratsiya bo'lib, bu fanlararo yondashuvga tayanadi. Biologiyani kimyo, fizika, geografiya, matematika, ekologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'lash orqali o'quvchilarda tahliliy fikrlashni chuqurlashtirish, bilimlarni kontekstual idrok etish, o'rganilayotgan hodisani keng ko'lamda anglash imkoniyati yaratiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'z bilim doiralari kengaytirib, ko'p yo'nalisli tafakkur shakllantiradilar.

Ikkinchi bosqich – Inversiya, ya'ni teskari fikrlash bosqichi, ta'lim oluvchilarni natijadan sababga intiluvchi tahliliy faoliyatga jalb qiladi. Bu metod tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va klassik "sababdan natijaga" yondashuvdan farqli ravishda, o'quvchining mantiqiy mulohazasi va kuzatuvchanligini kuchaytiradi. Biologik jarayonlar, ayniqsa genetik hodisalar yoki ekologik muammolarni tahlil qilish, masalalar yechish jarayonida inversiv fikrlash ta'lim oluvchining ilmiy tafakkurini ancha kuchaytiradi.

Uchinchi bosqich – Innovatsiya bo'lib, bu bosqichda o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalar va metodlar joriy etiladi. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, simulyatsion laboratoriyalar, raqamli tajriba maydonchalari orqali o'quvchilar tajriba orttiradi, murakkab biologik obyektlar va jarayonlarni vizual tarzda anglaydi, o'z bilimlarini mustahkamlaydi. Ushbu bosqich o'quvchi motivatsiyasini oshirishda, ta'limni raqamli transformatsiya bilan uyg'unlashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich – Immirsiya (Immersion), bu o'quvchini o'rganilayotgan muhitga to'liq singdirishni nazarda tutadi. Ya'ni, o'quvchi biologik bilimlarni nafaqat nazariy jihatdan o'zlashtiradi, balki tajriba, kuzatuv, laboratoriya ishlari, ekskursiyalar orqali ularni hayotiy faoliyatda qo'llashni o'rganadi. Bu bosqich didaktik jihatdan sotsio-konstruktivistik yondashuvlarga yaqin bo'lib, ta'limda faol ishtirok, ko'rgazmalilik va amaliyotga asoslanishiga zamin tayyorlaydi.

Beshinchi bosqich – Interpretatsiya, bu esa o'quvchining yakuniy tahliliy va reflektiv bosqichidir. Bu yerda o'quvchi ilgari o'rganilgan bilim va ko'nikmalar asosida xulosa chiqaradi, yangi g'oyalar ilgari suradi, muammoni boshqacha burchak ostida tahlil qiladi. Shu orqali o'quvchi o'z fikrini asoslay oladi, izchil tahlil olib boradi va kelgusida ilmiy-ijodiy faoliyat yuritishga tayyorlanadi.

5I modeli o'zining metodik yaxlitligi va ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi. U biologik ta'limda chuqurlashtirilgan, kompetensiyaviy va tahliliy yondashuvlarni uyg'unlashtiradi, o'quvchini o'rganish markaziga qo'yadi, ularning bilim olishini boshqariluvchi jarayondan mustaqil faoliyatga aylantiradi. Modelda har bir bosqich 4K kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatlar bilan boyitilgan. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash (critical thinking), ijodkorlik (creativity), hamkorlik (collaboration) va samarali muloqot (communication) har bir bosqichning mazmuni bilan bevosita uyg'unlashgan. 5I modeli hozirda mahalliy biologiya ta'limi muhitida sinovdan o'tkazilmoqda va dastlabki natijalar uning yuqori samaradorligini ko'rsatmoqda. O'quvchilar nafaqat mavzuni yaxshiroq anglamoqda, balki fanga nisbatan motivatsiyasi kuchaymoqda, mustaqil tahliliy fikr yuritish, ilmiy savol qo'yish va izlanish olib borish qobiliyatlari rivojlanmoqda. Bu model global yondashuvlar bilan raqobatlasha oladigan, mahalliy ehtiyojlarga to'la javob beradigan, tubdan milliy innovatsion ta'lim yondashuvi sifatida katta ilmiy-ijodiy salohiyatga ega.

Shu bilan birga, 5I modeli – bu nafaqat yangi pedagogik mexanizm, balki o'zbek pedagogik tafakkurining ilmiy ifodasidir. Dastlabki shakllanishidan boshlab, uni nazariy asoslash, konseptual izohlash, amaliy mexanizm-



larini ishlab chiqish, o'quvchi psixologiyasi bilan uyg'unlashtirish va innovatsion texnologiyalar bilan boyitish ishlarining barchasi muallif U. Raxmatov tomonidan bajarilgan tadqiqotlar natijasidir. Bu yondashuv milliy ta'limdagi mualliflik modellari orasida alohida o'ringa ega bo'lib, yaqin kelajakda biologik ta'limda ham, boshqa tabiiy fanlar didaktikasida ham keng ommalashish salohiyatiga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida 1-jadvalda 5I ↔ 5E ↔ 4K modellarining taqqoslovchi tahliliy jadvali berilgan. Jadvalda har bir modelning metodologik asoslari, didaktik maqsadi, ta'lim oluvchining faoliyatiga ta'siri, biologiya ta'limidagi qo'llanilishi va kompetensiyaviy yondashuv bilan aloqasi tahlil qilingan.

1-jadval: Zamonaviy pedagogik modellar taqqoslanishi (5I, 5E, 4K): tahliliy jadval

Mezon	5I modeli (Muallif: Raxmatov U.E.)	5E modeli (Bybee, konstruktivizm asosida)	4K kompetensiyalari (XXI asr ko'nikmalari)
Metodologik asos	Milliy kontekstda ishlab chiqilgan, konstruktiv va integrativ yondashuvlarga tayangan	Piaget, Vygotsky konstruktivizmi, faol o'quvchi yondashuvi	Kompetensiyaviy yondashuv, funksional savodxonlik
Bosqichlar (yoki tarkibiy qismlar)	Integratsiya, Inversiya, Innovatsiya, Immirsiya, Interpretatsiya	Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate	Critical thinking, Communication, Collaboration, Creativity
Didaktik maqsad	Fanlararo integratsiya va ijodiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish	O'quvchini mustaqil bilim yaratishga yo'naltirish	Har tomonlama shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi universal kompetensiyalarni rivojlantirish
O'quvchi roli	O'rganish subyekti, faol tadqiqotchi, innovator	Muammoni o'rganuvchi, tajribachi, izlanuvchi	Ijodkor, fikrlovchi, jamoaviy ishlovchi, muloqot qiluvchi
O'qituvchi roli	Yo'naltiruvchi, integratsiya qiluvchi, tahliliy faoliyatni tashkil etuvchi	Muammo yaratish va uni hal qilishga sharoit yaratuvchi, yo'l-yo'riq beruvchi	4K'ni rivojlantirishga xizmat qiluvchi sharoit yaratuvchi
Biologik ta'limdagi qo'llanish	Biologiya + kimyo + fizika + texnologiya + matematik fanlari integratsiyasi orqali biologik masalalarni hal qilishda (masalan: DNK tajribasi orqali fanlararo izlanish)	Laboratoriya tajribalari, kuzatishlar va tahlil orqali biologik tushunchalarni anglatish (masalan: hujayra bo'linishini bosqichma-bosqich o'rganish)	Biologik masalalarni hal qilishda tanqidiy fikrlash, guruhviy tahlil, ijodiy yechimlar taklif qilish (masalan: ekologik muammolar bo'yicha loyiha ishlab chiqish)
Kompetensiyaviy yondashuvga mosligi	To'laqonli mos: 4K'ni har bir bosqichda integratsiya qilgan	Kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantiradi, lekin umumiy kompetensiyaviy tizim bilan kamroq integratsiyalashgan	Kompetensiyaviy ta'limning markazida turadi
Afzalliklari	Mahalliy ta'limga moslashgan, ijodiy fikrlash va fanlararo integratsiyani kuchli rivojlantiradi	Ilmiy asoslangan va ko'p yillik tajribada sinovdan o'tgan; izchillikni ta'minlaydi	Zamonaviy jamiyatda zarur bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi
Cheklovlari yoki ehtiyojlari	Dastlabki bosqichda o'qituvchilarni tayyorlash zarurati mavjud	Qattiq ketma-ketlikdan chiqib ketish qiyin; moslashuvchanlik past	Nazariy-pedagogik model emas, balki natijaga yo'naltirilgan umumiy kompetensiyalar tizimi

Olib borilgan pedagogik tadqiqotlar asosida XXI asrda biologiya ta'limining asosiy maqsadi – o'quvchini atrof-muhit bilan ongli munosabatga kirishuvchi, ilmiy tafakkur asosida qaror qabul qiluvchi, biologik xilmaxillikni saqlashga ongli yondashadigan, ekologik mas'uliyatli va kompetent shaxs sifatida shakllantirishdan iborat. Shu bois, biologiya darslarida interaktivlik, fanlararo integratsiya, tajriba asosidagi o'qitish va real hayotga mos muammoli o'rganish metodikalarini qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar aynan 4K, 5E

va 5I modellarning dars jarayoniga integratsiyasi orqali amaliyotga joriy etilishi mumkin. 4K kompetensiyalari asosida biologiya darsi (Mavzu: Hujayra tuzilishi). Dars maqsadi: o'quvchilar hujayraning tuzilishi va funksiyalarini tanqidiy tahlil qilishi, o'z fikrini aniq bayon qila olishi, guruhda ishlashi hamda ijodiy yondashuv asosida modellashtirishi kerak.

Metodik yondashuv:

- tanqidiy fikrlash (Critical Thinking) – o'quvchilarga hujayra ichidagi organoidlar faoliyati haqida noto'g'ri ma'lumotlar aralashirilgan matn beriladi, ular ushbu axborotni tahlil qiladi va ilmiy xatolarni aniqlaydi;
- hamkorlik (Collaboration) – guruhlarda hujayra modelini yasash topshirig'i beriladi, har bir o'quvchi organoidlardan birini izohlaydi;
- ijodkorlik (Creativity) – o'quvchilar hujayrani "fabrika", "shahar" yoki "zavod" sifatida modellashtiradilar;
- muloqot (Communication) – har bir guruh o'z modelini sinf oldida himoya qiladi va savollarga javob beradi.

Bu jarayonda o'quvchi faol ishtirokchi, tahlilchi va yaratuvchi sifatida faoliyat yuritadi. 5E modeli asosida biologiya darsi (Mavzu: Fotosintez).

Dars maqsadi: o'quvchilar fotosintezning mohiyatini amaliy faoliyat orqali anglaydi, sabablilik bog'liqliklarini tushunadi va o'z bilimni nazariy asos bilan birlashtiradi.

Dars bosqichlari:

- Engage (Jalb etish) – o'qituvchi quyidagi savolni beradi: "Nima uchun kun davomida xona o'simliklari xonani tozaroq qiladi?" Bu o'quvchini qiziqtiradi;
- Explore (Tadqiq qilish) – guruhlar oddiy tajriba o'tkazadi: o'simlik barglari suvda kislorod ajratadimi? (Masalan: suvdagi Elodea o'simligi tajribasi);
- Explain (Tushuntirish) – tajriba natijalari asosida o'quvchilar fotosintezning tenglamasini tuzadi;
- Elaborate (Takomillashtirish) – o'quvchilar fotosintezni iqlim o'zgarishi bilan bog'laydi, "Atmosferadagi CO₂ miqdori oshsa, fotosintezga ta'siri qanday bo'ladi?" degan muammo ustida ishlanadi;
- Evaluate (Baholash) – mini-test, jamoaviy loyiha himoyasi va og'zaki fikrlar orqali bilimlar baholanadi. O'quvchi faol kuzatuvchi, izlovchi, tushunchalarni tuzuvchi va mulohaza yurituvchi sifatida faoliyat olib boradi. 5I modeli asosida biologiya darsi (Mavzu: Irsiyat va genetik kasalliklar) (Muallif: Raxmatov U.E.).

Dars maqsadi. O'quvchilar genetik kasalliklar haqida integrativ bilimlarga ega bo'ladi, sababiy bog'liqliklarni teskari asosda aniqlaydi, innovatsion texnologiyalarni tahlil qiladi va o'z fikrlarini mustaqil bayon etadi. Metodik yondashuv bosqichlari.

- Integratsiya: dars fizika (radiatsiya ta'siri), kimyo (mutatsiyalarni yuzaga keltiruvchi moddalar), informatika (DNK tahlili dasturlari) bilan integratsiya qilinadi. Misol: "BRCA geni"ni o'rganish.
- Inversiya: o'quvchilarga genetik kasallik simptomlari haqida klinik holatlar (kasallik tarixi) beriladi va ular simptomlardan sababga – ya'ni genetik o'zgarishgacha tahlil qiladi. Bu orqali teskari tahlil usuli yordamida sababga intilish amalga oshiriladi.
- Innovatsiya: genetik kasalliklarni oldindan aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar (CRISPR, DNK-sekvenirlash) haqida interaktiv taqdimot va videomateriallar asosida tahlil o'tkaziladi.
- Immersiya: virtual laboratoriyada o'quvchilar DNK ekstraksiyasini kuzatadi yoki real laboratoriyada namunalardan ishlaydi.
- Interpretatsiya: har bir guruh tahlil asosida genetik kasallikning yuzaga kelish sabablari, uni oldini olish yo'llari, ijtimoiy-psixologik oqibatlar yuzasidan xulosa beradi va ommaviy taqdimot o'tkazadi. Bu jarayonda o'quvchi tahlilchi, integrator, tadqiqotchi va yangi g'oya yaratuvchi sifatida faoliyat yuritadi ^[8].

Bizningcha, zamonaviy pedagogik model va yondashuvlarning biologiya faniga tatbiq etilishi nafaqat predmet mazmunining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlaydi, balki o'quvchilarda XXI asr sharoitida zarur bo'lgan funksional savodxonlik va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Jumladan, 4K kompetensiyalari o'quvchini har qanday fanni real hayotiy faoliyat bilan bog'lashga, turli ijtimoiy va akademik kontekstlarda samarali muloqot qilishga, guruhiy hamkorlikda ishlashga hamda yangicha va kreativ fikrlash orqali muammolarni hal etishga o'rgatadi. Bu kompetensiyalar biologiya fanining, ayniqsa ekologiya, sog'liqni saqlash va genetik xavfsizlik kabi ijtimoiy ahamiyatli yo'nalishlarda amaliyotga yaqinlashishini ta'minlaydi. 5E modeli esa o'zining konstruktivistik mohiyatiga ko'ra biologiyani o'qitishda tajriba, kuzatuv va muammoni yechish



asosida o'quvchini faol subyektga aylantiradi. Bu yondashuv orqali, masalan, fotosintez, hujayra tuzilishi, genetik meros kabi murakkab biologik tushunchalar faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy hodisa sifatida o'zlashtiriladi. Har bir bosqich – jalb etishdan boshlab baholashgacha – o'quvchining o'z faoliyati orqali bilimga erishishini rag'batlantiradi, bu esa uning mustaqil tahlil qilish, ilmiy fikrlash va izchil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ayniqsa, 5I modeli – o'zbek ta'limi uchun milliy ehtiyojlarga moslashtirilgan original konsepsiya sifatida – biologiyani chuqur, fanlararo va kreativ yondashuv asosida o'qitish imkonini beradi. Ushbu modelning har bir bosqichi (Integratsiya, Inversiya, Innovatsiya, Immersiya, Interpretatsiya) o'quvchini keng tafakkur qilishga, sabab-oqibat munosabatlarini tahlil etishga, zamonaviy texnologiyalarni tanqidiy baholashga, real hayotdagi biologik muammolarni anglashga va ularni hal etishga jalb etadi. Ayniqsa, genetik muammolar, ekologik xavflar yoki biologik xavfsizlik kabi dolzarb mavzularni o'rganishda 5I modeli o'quvchini chuqur tahlil, ilmiy izlanish va shaxsiy pozitsiya bildirishga yo'naltiradi. Shu bois, ushbu uch zamonaviy modelni biologiya ta'limiga integratsiya qilish orqali nafaqat fan bilimlarini mukammal egallash, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, hayotiy vaziyatlarda o'zini yo'qotmasdan muammoga yechim topish kabi universal ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa biologiya fanini o'zlashtirishni nafaqat akademik natija, balki hayotiy tayyorgarlik sifatida baholashga asos bo'ladi. Zamonaviy pedagogik modellar samaradorligini aniqlash maqsadida Toshkent shahridagi 277-umumta'lim maktabida 2024–2025 o'quv yilida biologiya fanidan 9-sinf o'quvchilari bilan eksperimental mashg'ulotlar o'tkazildi. Tajriba darslari davomida 4K kompetensiyalari, 5E konstruktiv modeli va pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent U. E. Raxmatov tomonidan ishlab chiqilgan 5I modeli integratsiyalangan tarzda qo'llandi. Darslar innovatsion metodlar asosida loyihalashtirilib, o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va chuqur fanlararo tahliliy yondashuvini shakllantirishga qaratildi.

Tajriba davomida quyidagi mavzular tanlab olindi: "Hujayra va uning tuzilishi" mavzusi 4K kompetensiyalari asosida, "Fotosintez" 5E modeli asosida hamda "Genetik kasalliklar va irsiyat" 5I modelining bosqichlariga tayangan holda tashkil etildi. Har bir darsda o'quvchilarni bilim egallovchidan faol subyektga aylantirishga urg'u berildi. Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ishtirok faolligi ayniqsa 5E modelining "Engage" va "Explore" bosqichlarida sezilarli darajada oshdi – 89% o'quvchi amaliy topshiriqlarda faol qatnashdi. 5I modelining "Imirsiya" bosqichida esa laboratoriya sharoitida olib borilgan real eksperimentlar o'quvchilarning fan muhitiga chuqur kirib borishiga xizmat qildi. Natijada, ishtirok faolligi 93% ga yetdi. Shu bilan birga, 4K kompetensiyalari bo'yicha ham sezilarli o'sish kuzatildi: tanqidiy fikrlash ko'nikmalari 5I modelining "Inversiya" bosqichi orqali faollashdi; hamkorlik 5E modelining "Elaborate" bosqichida guruhviy faoliyat orqali shakllandi; ijodkorlik ko'nikmalari esa genetik muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan mustaqil loyiha ishlari davomida rivojlandi. Muloqot ko'nikmalari darsdagi ochiq savol-javoblar, fikr almashish, loyiha himoyasi va muhokama orqali takomillashdi [5].

Bilim sifati o'zgarishi dars oldi va darsdan so'ng o'tkazilgan test natijalari orqali baholandi. Dars oldidan o'quvchilarning o'rtacha natijasi 58% bo'lgan bo'lsa, integratsiyalangan darsdan so'ng bu ko'rsatkich 87% ga oshdi. Bu esa, modellar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining o'zlashtirish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Umuman olganda, eksperiment natijalari 4K, 5E va 5I modellarining uyg'un holda qo'llanilishi biologiya fanining nazariy va amaliy jihatlarini birgalikda shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, 5I modelining milliy ta'lim sharoitlariga moslashganligi, fanlararo integratsiya va tahliliy yondashuvga asoslanganligi uni amaliyotda keng joriy etish imkoniyatlarini ochib beradi. Shu asosda, ushbu modelni nafaqat biologiya, balki boshqa tabiiy fanlar o'qituvchilarining ham pedagogik arsenaliga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

XXI asrda ta'lim jarayonining samaradorligi faqatgina bilim berish bilan emas, balki o'quvchining kompleks rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik yondashuvlar asosida qurilishiga bevosita bog'liqdir. 4K, 5E va milliy innovatsion yondashuv sifatidagi 5I modellarining tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir model alohida-alohida samarali bo'lishi bilan birga, ularning o'zaro integratsiyasi ta'lim mazmunini chuqurlashtirish, o'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirish va kompetensiyaviy o'zlashtirishni ta'minlashda kuchli sinergiya beradi. Xususan, 4K modeli o'quvchini universal ko'nikmalar bilan qurollantirsa, 5E modeli konstruktiv tajriba asosida faol o'rganishga undaydi, 5I modeli esa chuqur tahlil, kreativ fikrlash va fanlararo integratsiyani milliy kontekstda uyg'unlashtiradi. Bu modellarni ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish jarayonida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish muhim:

birinchidan, o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlarga oid metodik va amaliy tayyorgarligini oshirish;

ikkinchidan, darsliklar va elektron resurslarni modellar asosida qayta ishlab chiqish;


uchinchidan esa, tajriba-sinov maktablarida ilg'or loyihalarni yo'lga qo'yish.

Ayniqsa, 5I modelining milliy innovatsion resurs sifatida keng joriy etilishi, mavjud dars metodikasi va baholash tizimlariga integratsiyalashuvini ilmiy asoslash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, kelgusidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari bu modellar asosida biologiya fanidan tashqari boshqa fanlar (fizika, kimyo, geografiya) bo'yicha ham o'quv dasturlarini loyihalashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va funksional savodxonligiga ta'sirini empirik tadqiq qilish, shuningdek, raqamli ta'lim muhitida modellarni moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash bilan bog'liq bo'lishi lozim. Shu tariqa, 4K, 5E va 5I modellarining uyg'un qo'llanilishi ta'limda transformatsion sifat o'zgarishlar sari muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. San Francisco: Jossey-Bass.
2. Griffin, P., McGaw, B., & Care, E. (Eds.). (2012). *Assessment and Teaching of 21st Century Skills*. Springer.
3. Bybee, R. W. (2014). *The BSCS 5E Instructional Model: Creating Teachable Moments*. Arlington, VA: NSTA Press.
4. Dalgarno, B., & Lee, M. J. W. (2010). What are the learning affordances of 3-D virtual environments? *British Journal of Educational Technology*, 41(1), 10–32.
5. Ergashevich, R. U. (2024, January). Methodological principles of professional competence development of the future biology teacher. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 1–5).
6. Jonassen, D. H. (1999). *Designing Constructivist Learning Environments*. In: Reigeluth, C. M. (Ed.), *Instructional Design Theories and Models*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
7. OECD. (2018). *The Future of Education and Skills: Education 2030*. OECD Publishing. [<https://www.oecd.org/education/2030/>]
8. Raxmatov, U. (2024). Integrativ yondashuv asosida biologiyadan masala va mashqlar yechish fanini o'qitishning nazariy asoslari. *News of UzMU journal*, 1(1.2.1), 178–181.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.